

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA
STATISTIK TADQIQOTLAR INSTITUTI**

JALOLOV ILHOMJON ISOMIDDINOVICH

**SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI STATISTIK
BAHOLASH METODOLOGIYASI**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора экономических наук

Contents of the abstract of the dissertation of a doctor of economic sciences

Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich

Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasi..... 3

Жалолов Илхомжон Исомиддинович

Методология статистической оценки экономического потенциала предприятий 35

Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich

Methodology of statistical evaluation of the economic potential of industrial enterprises..... 69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 73

**OSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA
STATISTIK TADQIQOTLAR INSTITUTI**

JALOLOV ILHOMJON ISOMIDDINOVICH

**SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI STATISTIK
BAHOLASH METODOLOGIYASI**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.2.DSc/Iqt375 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	G'oyibnazarov Bahodir Karimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Maxmudov Nosir Maxmudovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Xatamov Ochildi Qurbonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Kenjabayev Omon Turg'unovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 232-69-92; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 232-69-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ da tarqatildi
(2025-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xo‘jaligining globallashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida tobora kuchayib borayotgan raqobat kurashiga bardosh berish, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan talab va takliflarni o‘rganish, zamonaviy raqamlashgan boshqaruv hamda ishlab chiqarish texnologiyalaridan maqsadli foydalanish va mahalliy hamda jahon bozorlari talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlarning eng muhim maqsadlariga aylanishi zarur. “Rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YAIM)da sanoat ulushi 40,0 foizni, xizmat ko‘rsatish sohasi ulushi esa 50,0 foizdan ortig‘ni tashkil qilmoqda”¹. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida sanoatning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash, ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy barqarorlik, innovatsion faoliyat hamda bozor ulushining empirik ko‘rsatkichlari asosida korxonaning amaldagi va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Dunyoda global ta‘minot zanjirlari tobora kuchayib borayotgan bosimga duch kelayotganligi, dunyo savdosining qariyb 80 foizi ishlab chiqarish, tarqatish va logistikaning o‘zaro bog‘langan tarmoqlariga tayanib kelganini hisobga olganda, sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Buning natijasida so‘nggi yillarda global ta‘minot zanjirlari yetishmovchilik va narxlarning oshishi (shu jumladan energiya, materiallar, oziq-ovqat va asosiy komponentlar) tufayli jiddiy uzilishlarga uchradi. Pandemiya va geosiyosiy keskinliklar bilan yanada kuchaygan bu qiyinchiliklar ko‘plab sanoat korxonalarini turli joylardagi yangi yetkazib beruvchilarni topishga majbur qildi. Butun dunyo bo‘ylab xom ashyo yetishmovchiligi, texnika-texnologiyalarning tez rivojlanishi va innovatsiyaga bo‘lgan talabning oshishi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Buning uchun sanoat korxonalaridan mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bundan ko‘rinadiki, jahonda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash, undan samarali foydalanish va uning barqarorligini ta‘minlash dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar, avvalo, ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik daraja, moliyaviy barqarorlik, eksport salohiyati va innovatsion faollik kabi ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash indikatorlarini ishlab chiqish, ularni raqamli axborot tizimlari bilan integratsiyalash hamda statistika idoralari faoliyatini zamonaviy tahliliy vositalar bilan boyitishga qaratilgan. Shu bilan birga, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan sanoat subyektlarining faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va qayta ishlash imkoniyatlarini yaratish, regionlar kesimida sanoat salohiyatining

¹<http://mirznanii.com/a/257730/rol-promyshlennosti-v-mirovom-khozyaystve;www.wb.org;>
[https://stud-files.net/preview/4404434/page:30/.](https://stud-files.net/preview/4404434/page:30/)

dinamikasini o'rganishga doir geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos statistik hisob-kitob metodologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-295-son "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-yanvardagi 18-son "Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2024-yil 8-noyabrdagi 748-son "Sanoat sohasida milliy brend egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga asosan, hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish, korxonalarining mavjud muammolarini tezkorlik bilan hal etish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining sanoat tarmoqlari bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish muhim vazifa qilib belgilangan. Ushbu qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Sanoat korxonalarini ko'p omilli statistik tadqiq etish, samarali boshqarish strategiyasini shakllantirish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini va faoliyat yuritish natijaviyligini ko'paytirish, boshqaruv jarayonlarini statistik-ekonometrik baholash hamda tahlil natijalari asosida olib birilgan ilmiy izlanishlar xalqaro yuqori darajadagi ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Stenford University, Princeton University, Harvard University (AQSH), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg'ona davlat universiteti (O'zbekiston Respublikasi)da olib borilmoqda.

Globalashuv sharoitida sanoat korxonalarining faoliyatini innovatsion rivojlantirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: sanoat

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSH), Harvard University (AQSH), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya) hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

korxonalarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy mexanizmi ishlab chiqilgan; korxonalarning faoliyat yuritish samaradorligini zamonaviy statistik usullarda integral baholash uslubi takomillashtirilgan; tizim boshqaruvini optimallashtirish uchun zarur tashkiliy o'zgarishlarning ta'siri ekonometrik usullarda baholangan (Stenford University, Princeton University, AQSH; Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, Ispaniya; University of Munster, Germaniya); sanoat korxonalarining faoliyatini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanish, iqtisodiy salohiyatini oshirish jihatlari asoslangan (Korea Development Institute, Janubiy Koreya); sanoat tarmog'idagi jami daromadlar va yalpi ichki mahsulot hajmining o'zgarish tendensiyalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan (Gazi University, Turkiya), industrial sektorning mamlakat va hududlar iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etishi, sanoat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari asoslangan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston).

Jahonda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan quyidagi yo'nalishlarda bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, hududlarda sanoat ishlab chiqarish korxonalarida xalqaro tajribalarga asoslangan ekonometrik va statistik tahlillarni amalga oshirgan holda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uslubiyotini takomillashtirish; sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni standartlashtirish va xalqaro darajaga javob beradigan tartibni amalga oshirish; sanoat ishlab chiqarish korxonalari tomonidan yaratilgan mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish; uning infratuzilmasini yaratish; ishlab chiqarish sektorlarining iqtisodiy salohiyati va innovatsion boshqaruvini rivojlantirish; yuqori sifat standartlariga javob beruvchi ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlillardan maqsadli foydalanish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatini iqtisodiy, statistik, ekonometrik tahlil qilishning ilmiy jihatlari ayrim yetakchi xorijiy iqtisodchi-olimlarning adabiyotlari va ilmiy ishlarida o'rganilgan, xususan, Rudolf R. S., Denanjalee Gunaratne, Noemi Sinkovics, Xiaodi Xu, Yongfeng Zhu, Liuyang Xu, Zilong Wang, Sampi Bravo, James Robert Ezequiel, Sugiura Ko, Mukhlis M., M.Oytun, A. Muharrem, M. Hirooka, Berislav Žmuk va boshqalar shular jumlasidandir.²

² Rudolf R. Sinkovics, Gunaratne, Denanjalee and Noemi Sinkovics(2023), "The promise of industry 4.0 technologies for the sustainability of developing country apparel manufacturers," in Research handbook on international corporate social responsibility, Anthony Goerzen (Ed.). Cheltenham, England, UK: Edward Elgar Publishing, 391-407. <https://doi.org/10.4337/9781802207040.00034>, Xiaodi Xu, Yongfeng Zhu , Liuyang Xu and Zilong Wang, Influence of Industry-University Cooperation on Economic Development: A Mathematical Statistical Analysis, Mathematical Problems in Engineering , Hindawi Publishing Corporation, Volume 2021, Article ID 4661933, 11 pages <https://doi.org/10.1155/2021/4661933>, Sampi Bravo, James Robert Ezequiel, (2024). Empirical Econometric Studies on the Economic Growth of Developing Countries. [Research and graduation internal, Vrije Universiteit Amsterdam]. <https://doi.org/10.5463/thesis.919>, Sugiura Ko, Econometric Evaluation of Industrial Policies in Macroeconomic Models of Sectoral Production Networks and Firm-Level Strategic Interactions (July 12, 2024). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4625364> , Mukhlis Mukhlis, Agglomeration of Manufacturing Industrial, Economic Growth, and Interregional Inequality in South Sumatra, Indonesia // International Journal of Economics and Financial Issues, 2017. – № 7 (4). – P. 214-224.; M.Oytun, A. Muharrem The Effects of Structural Transformations in Economy

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlardan S.S. Gʻulomov, N.M. Maxmudov, C.O. Xomidov, N.R. Avazov, B.B. Berkinov, N.M. Soatov, T.Sh. Shodiyev, B.T. Salimov, Yo. Abdullayev, B.K. Gʻoyibnazarov, A. Abdullayev, B. Xodiyev, A. Ishnazarov, X. Nabiyeu, D.X. Nabiyeu, R.S. Muratov, I.A. Djalolova, S.Sh. Oripov, M.Q. Pardayev, B.A. Hasanov, J.I. Isroilov, A.N. Xoliqulov va boshqalarning ilmiy ishlarida korxona iqtisodiy salohiyatini baholash hamda tahlil qilish masalalari har tomonlama tadqiq etilgan³.

Ammo mamalakatimizda sanoat korxonalari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasini va ilmiy asoslarini rivojlantirish mustaqil tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmaganligi bizning tadqiqot mavzumizning dalzarbligini belgilaydi hamda bu muammolar ustida ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borish zaruratini asoslaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish va istiqbollarni prognozlash boʻyicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni statistik baholashning nazariy tomondan oʻrganish;

sanoat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini statistik baholash boʻyicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

sanoat ishlab chiqarish korxonalari kompleks iqtisodiy salohiyatini tahlil etishda xorijiy tajribalar asosida amalga oshirilgan statistik uslublarni inobatga olgan holda ilmiy takliflar berish;

on Labor Markets: the Case of OECD Countries // International Journal of Business and Social Science, 2014. August. Vol. 5. No. 9 (1).; M. Hirooka, Innovation Dynamism and Economic Growth. A Nonlinear Perspective. – Cheltenham, UK-Northampton, MA, USA: Edward Elgar, 2006. – 75 p.; Berislav Žmuk. Measuring Efficiency of Statistical Methods Use in Enterprises: Development of a System of Indicators. Monograph, 2018;

³ S.S. Gʻulomov. Makroiqtisodiy statistika. tahriri ostida. T.: Dita. 2002. – 275 b , N.M. Maxmudov, C.O. Xomidov, N.R. Avazov, “Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish”, (Monografiya)-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi”, 2020, -228 b.; B.B. Berkinov Тенденции и перспективы социально-экономического развития Узбекистана // Научный электронный журнал «Экономика и инновационные технологии». № 1, сентябрь 2011 г., с. 1-16.; N.M. Soatov Statistika. Darslik. – T.: Tibbiyot, 2003. – 573 b.; T.Sh. Shodiyev Ekonometrika. Oʻquv qoʻl. – T.: Adabiyot jamgʻarmasi, TDIU, 2005. – 126 b.; B.T. Salimov Моделирование использования и развития производственного потенциала региона. - T.: Ўқитувчи, 1995.; Yo. Abdullayev Makroiqtisodiy statistika 100 savolga 100 javob. – T.: Mehnat, 1998. – 382 b.; B.K. Gʻoyibnazarov, L. Kolonova Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – T., 2007. – 106 b.; A. Абдуллаев, Б. Ходиев, А. Ишназаров Эконометрика. – T.: ТГЭУ, 2007. – 612 с.; X. Nabiyeu, D.X. Nabiyeu Iqtisodiy statistika. Darslik. – Toshkent, 2008. – 106 b.; R.S. Muratov, I.A. Djalolova, S.Sh. Oripov Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent, 2014. – 50 b.; M.Q. Pardayev, B.A. Hasanov, J.I. Isroilov, A.N. Xoliqulov Iqtisodiy tahlil. Darslik. – Toshkent, 2011. – 136 b.

sanoat korxonalari faoliyati iqtisodiy salohiyatini umumiy baholab beruvchi ma'lumotlar bazasi va ular asosida qayta ishlab chiqilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatiga ta'sir qiluvchi ijobiy-salbiy omillarni statistik va ekonometrik tahlillarni qo'llash orqali umumiy xulosalar berish;

sanoat ishlab chiqarish korxonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi holatini baholat va unga ta'sir qiluvchi omillarni prognozlash;

sanoat ishlab chiqarish korxonalari innovatsion-iqtisodiy salohiyatini statistik baholash, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish bo'yicha ilmiy takliflar berish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik tahlil qilish bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik tahlil qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy va dinamik tahlil, monografik tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, variatsiya ko'rsatkichlari, statistik jadval va grafiklar, anketa, ekspert baholash, ekonometrik tahlil va prognozlash usullari keng qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxona iqtisodiy salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozor sharoitida moddiy, nomoddiy aktivlar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat resurslarni innovatsion transformatsiya, institutsional hamkorlik va ustuvor barqarorlik tamoyillari asosida integratsiya qilish orqali qiymat yaratish qobiliyati jihatidan takomillashtirilgan;

turli mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik ko'rsatkichlar tizimi "moddiy resurslar", "nomoddiy aktivlar", "mehnat resurslari" hamda "tadbirkorlik qobiliyati"ni yaxlit bir tizimda baholashga asoslangan yondashuv orqali rivojlantirilgan;

korxonalarda "texnologik salohiyatdan foydalanish indeksleri" (texnologik omillar samaradorligi, quvvatlardan foydalanish, quvvatlar bilan ta'minlanish darajasi) va "mehnat unumdorligi indeksleri" (yakka tartibdagi, agregat, o'rtacha garmonik, tortilgan)dan foydalanib, iqtisodiy salohiyatlarni statistik baholashning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan;

sanoat korxonasi innovatsion salohiyatini tuzilmaviy tahlil usulida statistik baholash tizimining innovatsion salohiyatida erishilgan darajasining "yuqori" ($0,65 \leq IS_{yu} \leq 1,0$), "o'rta" ($0,35 \leq IS_o \leq 0,64$), "past" ($0 < IS_p \leq 0,34$) oraliq qiymatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tadbirlarni belgilash tartibini kiritish orqali rivojlantirilgan;

O'zbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda mavjud imkoniyatlarini hisobga oluvchi ekonometrik modellar asosida iqtisodiy rivojlanishining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat ishlab chiqarish korxonalari mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni amaliyotda joriy qilish, raqobatbardoshlik, investitsiya oqimi hamda innovatsion samaradorlik darajalarini baholagan holda sanoat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy umumiy salohiyatini barqarorlashtirishga qaratilgan masalalar hal qilingan;

sanoat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatini statistik baholash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

xalqaro tajribalarda qo'llanilgan statistik tahlillar orqali sanoat ishlab chiqarish korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatining barqaror rivojlanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

sanoat ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni aniqlash metodologiyasi ishlab chiqilgan hamda faoliyat samaradorligini ishlab chiqilgan statistik-ekonometrik baholash usullarini qo'llash orqali baholash tizimi takomillashtirilgan;

sanoat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatlarini kompleks statistik-ekonometrik baholash asosida o'rta muddatli prognozlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi iqtisodiyot tarmoqlari tarkibidagi korxonalar statistik ma'lumotlaridan keng foydalanilgani, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari hamda nazariy ishlanmalar amaliy vazifalarni hal etishda qo'llanilishi hamda xulosa, taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tgani, shuningdek, olingan natijalardan amaliyotda foydalanilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishida keltirilgan yangiliklardan sanoat ishlab chiqarish korxonalarida kompleks iqtisodiy salohiyatni statistik baholash samaradorligini oshirishda, boshqaruvni rejali asosda tashkillashtirish va natijaviyligini ta'minlashda statistik tahlil hamda ekonometrik modellarni ishlab chiqish metodologiyasini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida keltirilgan yangiliklardan sanoat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy faoliyatini statistik usullarda tahlil qilish, baholash samaradorligining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda korxonalar faoliyatini prognozlashda qo'llanilishi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan "Statistika asoslari", "Iqtisodiy-statistik tahlil" hamda "Korxona iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha keys-stadi, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanilish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyatini xalqaro tajribalarda qo'llanib kelinayotgan statistik ilmiy-amaliy uslublaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxona iqtisodiy salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini bozor sharoitida moddiy, nomoddiy aktivlar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat resurslarni innovatsion transformatsiya, institutsional hamkorlik va ustuvor barqarorlik tamoyillari asosida integratsiya qilish

orqali qiymat yaratish qobiliyati jihatidan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Moliya statistikasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 25.12.2021-yildagi 538-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda resurslarni integratsiya qilish orqali qiymat yaratish qobiliyati jihatidan takomillashtirilgan "korxona iqtisodiy salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha yangi nazariy bilimlarni hosil qilish imkoni yaratilgan;

turli mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik ko'rsatkichlar tizimi "moddiy resurslar", "nomoddiy aktivlar", "mehnat resurslari" hamda "tadbirkorlik qobiliyati"ni yaxlit bir tizimda baholashga asoslangan yondashuv orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-apreldagi 04-07-27-3714-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi sanoat korxonalaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanish, mehnat xarajatlarini kamaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirish hisobiga korxonalar samaradorligini oshirgan;

korxonalarda "texnologik salohiyatdan foydalanish indeksleri" (texnologik omillar samaradorligi, quvvatlardan foydalanish, quvvatlar bilan ta'minlanish darajasi) va "mehnat unumdorligi indeksleri" (yakka tartibdagi, agregat, o'rtacha garmonik, tortilgan)dan foydalanib, iqtisodiy salohiyatlarni statistik baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-apreldagi 04-07-27-3714-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi sanoat korxonalari moddiy-moliyaviy hamda mehnat resurslarini tejash hisobiga sanoat korxonalarining iqtisodiy-innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilgan;

sanoat korxonasi innovatsion salohiyatining tuzilmaviy tahlil usulida statistik baholash tizimi innovatsion salohiyatni erishilgan darajasining "yuqori" ($0,65 \leq IS_{yu} \leq 1,0$), "o'rta" ($0,35 \leq IS_o \leq 0,64$), "past" ($0 < IS_p \leq 0,34$) oraliq qiymatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tadbirlarni belgilash tartibini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-apreldagi 04-07-27-3714-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi uslubiy negizida ekonometrik modellardan keng foydalanish asosida sanoat korxonalari uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini yaratgan;

O'zbekiston sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda mavjud imkoniyatlarini hisobga oluvchi ekonometrik modellar asosida iqtisodiy rivojlanishining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 24-apreldagi 04-07-27-3714-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi

istiqbolda sanoat korxonalari salohiyati va samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini statistik baholash hamda barqaror rivojlantirish uchun maqsadli dasturlar ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali yana boshqa imkoniyatlarni yaratish va sanoat korxonalarining samarali istiqbollarini belgilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ilmiy ishimizning natijalari 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma’ruzalarda bayon qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Doktorlik ishi natijalari bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 236 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Korxonaning iqtisodiy salohiyatini tizimli statistik tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida korxonalarning iqtisodiy salohiyat tushunchasi va uning mazmuni yoritilib, uni belgilovchi asosiy omillar, tamoyillar, me’yoriy-huquqiy asoslar o‘rganilgan hamda xalqaro tajribalar tadqiq etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, korxonalarni, ayniqsa, sanoat korxonalarining yaratgan qo‘shilgan qiymati katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu shuni anglatadiki, har bir davlat mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga katta ahamiyat qaratishi zarur. Mamlakatimizda ham bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, mahalliy va xorijiy bozorlarga xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini quyidan yuqoriga qarab o‘sishi uchun qo‘llab-quvvatlash, aholini sanoat ishlab chiqarish korxonalarida band qilish va ularning daromadlarini oshirish bilan bog‘liq harakatlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

Xalqaro va mahalliy olimlarning fikricha, “har qanday korxonaning iqtisodiy salohiyati rejalashtirilgan ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish uchun tashkilot ixtiyorida bo‘lgan resurslar tarkibi: mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqalarni o‘zida aks ettiradi” deb fikrlar berilgan.


Olimlarning fikrlarini inobatga olib, “iqtisodiy salohiyat” tushunchasini ikki guruhga bo‘lib izohlash to‘g‘ri deb hisoblaymiz:

1. Sanoat korxonalarining moddiy imkoniyatlari. Bunga texnika-texnologiyalar, material, xom ashyo bazasi, bino inshootlari va pul mablag‘ri sifatida qarash mumkin;

2. Sanoat korxonalarining nomoddiy imkoniyatlari. Bunga yangi patentlangan brend mahsulotlarining nomi, mehnat resurslari, ilmiy tadqiqot ishlari, innovatsion patentlar va g‘oyalarni kiritish mumkin.

Agar sanoat korxonalari shu imkoniyatlarni o‘zida borligini aniqlay olsa va uni kelajakda ishlata olish rejalariga ega bo‘lsa, bunday imkoniyatlar birlashib iqtisodiy salohiyatni keltirib chiqaradi.


Sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan konseptual yondashuv ichki va tashqi muhitning tizim yaratish omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda asoslanadi. Turli darajadagi iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi indikatorlarni yaratish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan va yangilangan tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan omillar taklif etiladi.



1-rasm. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati⁴.

Sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini baholashda iqtisodiy salohiyat tushunchasidan kelib chiqib, korxona to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘g‘ri tasniflanib va bir-biriga bog‘liq omillar statistik tahlillar asosida o‘rganildi hamda omillar takrorlanishining oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ayrim omillar alohida qaralganda iqtisodiy salohiyat tushunchasini ta’riflab bersada, boshqa omillarni ham hisobga olganda bir-birining o‘rnini bosuvchi omillar sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun statistik tahlillar asosida barcha omillarning umumiy ta’sirini inobatga olish kerak.

⁴ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Korxonaning iqtisodiy salohiyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari⁵

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Korxona iqtisodiy salohiyati moddiy resurslarni baholash bilangina emas, balki uni to'g'ri boshqarib yuqori samaradorlikka erishish bilan ham baholanishi zarur. Korxonani boshqarishga ham bir salohiyat sifatida qarash mumkin. Ammo uni baholab beruvchi aniq bir qiymat mavjud emas.

Ishlab chiqaruvchida birinchi – moddiy resurslarning roli katta bo'lsa, ikkinchi – uni qay darajada boshqarish natijaviy ahamiyatga ega. Yuqori moddiy salohiyatning samaradorligi yuqori tadbirkorlik qobiliyatiga sezilarli darajada bog'liqdir.

Shu sababli, korxona iqtisodiy salohiyatini to'liq baholashda faqat uchta omil, ya'ni moddiy resurslar, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari yetarli emas deb hisoblaymiz va to'rtinchi omil sifatida tadbirkorlik qobiliyatini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Ilmiy ishda “korxona iqtisodiy salohiyati” tushunchasiga mualliflik ta'rifini berganmiz. Ya'ni, “korxona iqtisodiy salohiyati” tushunchasi iqtisodiy mazmuni bozor sharoitida moddiy, nomoddiy aktivlar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyati omillari orqali baholanadi(2-rasm).

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonasi iqtisodiy salohiyatini baholashning kompleks statistik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida korxonalarning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar, ularning iqtisodiy-statistik tahlili, moliyaviy salohiyatini baholash bayon etilgan.

Xorijiy mamlakatlar gigant kompaniyalari kabi mamlakatimizdagi korxonalarning ham iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir. Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, fanning eng so'ngi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish hamda joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart”⁶ degan so'zlarini keltirish o'rinlidir.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida korxonalar iqtisodiy salohiyatiga qarab turkumlangan bo'lishi va ularning to'liq holati haqidagi ma'lumotlar o'rganish uchun ma'lumotlar bazasida bo'lishi kerak. Past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalar tugatilishining oldini olish bo'yicha mamlakat tomonidan kuchaytirilgan va tezkor qo'llab-quvvatlash dasturi ishga tushishi mamlakatda korxonalar sonining barqaror o'sishini ta'minlaydi va sanoat korxonalari mahsulot hajmining oshishi mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 23.12.2017 // <https://www.xabar.uz>.


1-jadval

YaIM va sanoat mahsuloti hajmining dinamikasi, mlrd so‘m⁷

	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM	668 038,00	820 536,60	995 573,10	1 204 458,40	1 454 573,90
Sanoat mahsuloti hajmi	368 740,20	456 056,10	553 265,00	658 991,70	885 818,90
Sanoat mahsuloti hajmining YaIMdagi ulushi	55	56	56	55	61

Mamlakatimizda sanoat tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotga eng katta ta’sir qiluvchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sanoat tarmog‘ining rivojlanishiga davlat ham alohida qo‘llab-quvvatlash dasturlari bilan ishtirok etish orqali, bu tarmoqning taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shadi.

2024-yilga kelib sanoat mahsuloti hajmi YaIMda 61 % ulushni egallab turibdi. 2020-yilga nisbatan 2024-yilga kelib dinamikani ko‘radigan bo‘lsak 6 %ga o‘shish tendensiyasini ko‘rish mumkin.



3-rasm. Sanoat mahsulot hajmi, mlrd so‘m⁸.


Sanoat mahsuloti hajmining zanjirsimon dinamikasini ko‘radigan bo‘lsak, 2001-yilda 49 %ga, 2002-yilda 58 %, 2003-yilda 36 %, 2004-yilda 32 %, 2005-yilda 35 %, 2006-yilda 32 %, 2007-yilda 26 %, 2008-yilda 29 %, 2009-yilda 19 %, 2010-yilda 34 %, 2011-yilda 24 %, 2012-yilda 20 %, 2013-yilda 22 %, 2014-yilda 18 %, 2015-yilda 16 %, 2016-yilda 14 %, 2017-yilda 33 %, 2018-yilda 58 %, 2019-yilda 40 %, 2020-yilda 11 %, 2021-yilda 23 %, 2022-yilda 21 %, 2023-yilda 19 % va 2024-yilda 34 % oshganligini ko‘rish mumkin. 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sanoat mahsuloti hajmi 2,4 barobarga oshganligini kuzatish mumkin (3-rasm). Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, sanoat mahsulot hajmi har bir yilda

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

YaIM tarkibida eng katta ulushga ega bo‘lmoqda. 2024-yilga kelib yuqori o‘shish darajasiga erishilgan.

Sanoat korxonalari soni dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2000-2022-yillar oralig‘ida korxonalar soni faqat o‘shish tendensiyasini ko‘rsatmoqda va 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 98800 tani tashkil etmoqda. 2022-2024-yillar oralig‘ida korxonalar sonida kamayish yuz bermoqda va 2024-yilda 2022-yilga nisbatan deyarli 44 %ga kamaymoqda. 2024-yilda jami faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 55600 tani tashkil etmoqda va 2022-yilga nisbatan 43200 taga kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida pandemiya davrida kuzatilgan taqiqlar, asosiy vositalarning yetishmovchiligi va xom ashyo bazasining kirib kelishidagi muammolar sifatida ko‘rsatish mumkin va bu, albatta, ta’sirini 2022-yilga kelib ko‘rsatdi (4-rasm).



4-rasm. Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, ming dona⁹.

Dissertatsiya ishida Buxoro viloyatidagi 50 ta sanoat korxonasining moliyaviy, mehnat va moddiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (2-jadval).

Tahlillardan ko‘rinadiki, hisobot yilida bazis yilga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5 % oshgan hamda korxonalar sof foydasi qariyb 82 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Buxoro viloyatidagi 50 ta sanoat korxonasining moliyaviy, mehnat va moddiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili¹⁰

	2023	2024	Mutloq o'zgarish, +/-	Nisbiy o'zgarish, +/-
Mahsulot sotishdan tushum (ming so'm)	7 412 679 332	7 803 521 200	390 841 868	5,27 %
Mahsulot tannarxi (ming so'm)	6 660 588 427	6 560 893 813	-99 694 614	-1,50 %
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (ming so'm)	4 052 052 599	4 064 462 853	12 410 254	0,31 %
Xodimlar soni(kishi)	9 475	9 923	448	4,73 %
Sof foyda (ming so'm)	115 862 212	211 387 847	95 525 636	82,45 %
Mehnat unumdorligi (ming so'm)	782 341	786 407	4 067	0,52 %
Fond qaytimi (samarasi), so'm	1,83	1,92	0,09	4,92 %
Fond sig'imi , so'm	0,55	0,52	-0,03	-5,45 %
Mehnatni fond bilan ta'minlanish darajasi (ming so'm)	427 657	409 600	-18 057,06	-4,22 %
Umumiy rentabellik darajasi, %	2,86	5,2	2,34	-

Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati 0,31 foizga, ishlab chiqarish bilan band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni 5,2 foizga, mehnat unumdorligi 0,52 foizga oshgan. Lekin mahsulot tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1,5 foizga kamaygan, fond qaytimi 4,9 foyizga oshgan va fond sig'imi esa 5,4 foizga kamaygan, mehnatning fond bilan ta'minlanish darajasi 4,2 foizga kamaygan. Umumiy rentabellik darajasi 2023-yilda 2,86 %ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 5,2 %ni tashkil etmoqda.

Tadqiqot ishida iqtisodiy salohiyatini baholashning statistik ko'rsatkichlar tizimining takomillashtirilgan uslubiyati ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat.

1. Fondlarning faollik indeksi

$$F_{\text{Faollik}} = \frac{\text{Faol asosiy fondlar}}{\text{Umumiy asosiy fondlar}}$$

2. Fondlarning yangilanish indeksi

$$F_{\text{Yangilanish}} = \frac{\text{Yangi fondlar qiymati}}{\text{Umumiy asosiy fondlar}}$$

3. Fondlardan foydalanish samaradorligi indeksi

$$F_{\text{Rentabelligi}} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati}}$$

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4. Fondlar bilan qurollanganlik indeksi

$$F_{\text{Qurollanganlik}} = \frac{\text{Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{O'rtacha ishchilar soni}}$$
5. Quvvatlardan foydalanish indeksi

$$F_{\text{Foydalanish}} = \frac{\text{Haqiqiy ishlab chiqarish hajmi}}{\text{O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati}}$$
6. Rejalashtirilgan vaqt fondidan foydalanish indeksi

$$F_{\text{Vaqt}} = \frac{\text{Ishlatilgan vaqt}}{\text{Rejalashtirilgan vaqt}}$$
7. Sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi

$$F_{\text{Sifatli mahsulot}} = \frac{\text{Sifatli mahsulotlar}}{\text{Umumiy mahsulot}}$$
8. Ishlab chiqarish xodimlari indeksi

$$M_{\text{ishlab chiqarish}} = \frac{\text{Ishlab chiqarish xodimlari}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$
9. Malakali xodimlar indeksi

$$M_{\text{Malakali}} = \frac{\text{Malakali xodimlar}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$
10. Oliy ma'lumotli xodimlar indeksi

$$M_{\text{Oliy ma'lumot}} = \frac{\text{Oliy ma'lumotli xodimlar}}{\text{Umumiy xodimlar}}$$
11. Texnologik yangilanish indeksi

$$I_t = \frac{\text{Ishlab chiqarishdagi texnologik yangi asosiy vositalar}}{\text{Jami ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar}}$$
12. Avtomatlashtirilgan asosiy vositalar indeksi

$$I_a = \frac{\text{Avtomatlashtirilgan asosiy vositalar}}{\text{Jami asosiy vositalar}}$$
13. Sifatli mahsulotlar indeksi

$$I_s = \frac{\text{Sifatli mahsulotlar}}{\text{Umumiy mahsulot}}$$
14. Innovatsiyaga qilingan xarajat indeksi


$$I_{ix} = \frac{\text{Innovatsiyaga qilingan xarajat}}{\text{Jami xarajat}}$$
15. Yangi mahsulotlar soni

$$I_{ym} = \frac{\text{Yangi mahsulotlar soni}}{\text{Jami mahsulotlar soni}}$$
16. Malakali xodimlar indeksi

$$I_{mx} = \frac{\text{Malakali xodimlar soni}}{\text{Jami xodimlar soni}}$$
17. Ragamlashtirilgan hisobotlar indeksi

$$I_r = \frac{\text{Ragamlashtirilgan hisobotlar soni}}{\text{Jami hisobotlar soni}}$$

